

**YENGILMAS QAL'A YOHUD MING OTLIQLAR DIYORI —
HAZORASP**

Matyakubova Sohiba O'rinboy qizi

*Urganch innovatsion universiteti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasi
o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xorazmning qadimgi manzilgohlaridan Hazorasp qal'asi tarixi, tuzilishi va toponimikasining kelib chiqishi arxeologik hamda sayyohlar ma'lumotlari asosida yoritib berilgan. Hazorasp haqida arab, fors va ingliz sayyohlari o'z xotiralarida shahar go'zalligini, savdo markazi sifatidagi ahamiyatini va "yengilmas qal'a" sifatidagi shuhratini ta'kidlaganlar. Qal'a nomi haqida turli afsonalar mavjud: bir rivoyatga ko'ra, dev tomonidan qurilgan va "ming ot"(Hazorasp) nomi bilan atalgan, ikkinchisida esa Amudaryo bilan yer osti yo'li orqali bog'langan suv ta'minoti tizimi mavjud bo'lgan.

Kalit so'zlar: Hazorasp, Xorazm, qadimiy qal'a, arxeologik yodgorlik, mudofaa inshootlari, toponimika, afsonalar.

Annotation : This article explores the history, structure, and toponymy of the ancient fortress of Hazorasp, one of the key archaeological sites of Khorezm, based on archaeological research and travelers' accounts. Arab, Persian, and English travelers in their memoirs highlighted the beauty of the city, its significance as a trade center, and its reputation as an "impregnable fortress." Various legends surround the name of the fortress: one claims it was built by a demon and named "Hazorasp" (meaning "a thousand horses"), while another suggests it had an underground water supply system connected to the Amu Darya.

Keywords: Hazorasp, Khorezm, ancient fortress, archaeological monument, defensive structures, toponymy, legends.

Аннотация: В данной статье освещается история, структура и происхождение топонима древней крепости Хазарасп – одного из ключевых археологических памятников Хорезма, на основе археологических

исследований и записей путешественников. Арабские, персидские и английские путешественники в своих воспоминаниях подчеркивали красоту города, его значение как торгового центра и славу «непобедимой крепости». Существуют различные легенды о названии крепости: согласно одной, она была построена дивом и названа «Хазарасп» (что означает «тысяча лошадей»), а другая связывает её с подземной системой водоснабжения, соединённой с Амударьей.

Ключевые слова: *Хазарасп, Хорезм, древняя крепость, археологический памятник, оборонительные сооружения, топонимика, легенды.*

O'zbekistonning qadimgi tarixini mukammal o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Bu jarayon arxeologiyaga oid ashyolar va qadimiy yozma manbalar asosida o'rganiladi. Shu boisdan ham O'zbekiston hududida tashkil topgan qadimiy shaharlar tarixini birlamchi manba – arxeologik manbalar asosida o'rganamiz va tadqiq qilamiz.¹

Arxeologiyaga oid topilmalar – moddiy manbalar, ibtidoiy makonlar, qishloq va shahar xarobalari o'lkamizning turli joylarida chuqur o'rganilgan. Yurtimiz qadimgi tarixini yoritish jarayoniga poydevor solgan “Avesto” kitoblari, Geradot va Ktesiy ma'lumotlari, Beruniy, Narshaxiy, Ibn Xavqal, Klavixxo asarlari va boshqa mualliflar izlanishlari hamda mashhur arxeolog olimlar Y. G'ulomov, S. P. Tolstov, Vanberi kabi olimlarning O'rta Osiyodagi izlanishlari va kashfiyotlari butun dunyoga mashhur bo'ldi va qadimgi tarixni tiklashga muhim ahamiyat kasb etdi.

Jahon miqyosida xalqaro aloqalar kengayib borayotgan zamonaviy globallashuv jarayonlari sharoitida, madaniy merosni saqlash, sivilizatsiya namunalari, tarixiy obidalarini kengroq o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xorazm vohasi o'zining boy va yaxshi saqlangan arxeologik yodgorliklari hamda ularning o'rganilganlik darajasi jihatidan

¹ Ahmadali Asqarov Eng qadimiy shahar. “Manaviyat”. – Toshkent. 2001. – B. 3.

ham O'rta Osiyoda muhim o'rin tutadi.²

Qadimiy va o'rta asrlarda Xorazm Sharq sivilizatsiyasi o'choqlaridan bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot rivojlangan vohalardan hisoblanadi.

Xorazm — muqaddas zamin... O'zbek davlatchiligining tamal toshlari ko'p ming yillar muqaddam ayni Xorazm vohasida qo'yilgan. Xorazm tarixi o'zbek davlatchiligining asosi, uning qudrati va qadimiyligining tasdig'idir.³

Antik davrda Xorazm vohasida insonlarning mehnati natijasida barpo etilib, tarixning barcha davrlarida hayot mavjud bo'lgan va Xorazm vohasining ko'hna madaniyati, san'ati, e'tiqodi va turmush tarzi tarixini o'zida namoyon etgan noyob qal'alardan biri bu Hazorasp qal'asi harobalaridir. Mazkur qal'aning tarixi Sharqning mumtoz shaharlari Bobil, Rum, Maka, Samarqand, Buxoro shaharlari tarixi kabi qadimiydir. O'tmishda bu qal'ani tarixchilar "Qal'ai Sulaymon", "Aturaspken" (muqaddas olov) va "Hazorasp ko'p joyi mahkam va qal'a ichidagi qal'a" nomlari bilan ataganlar.⁴

Hazorasp qal'asi Xorazm vohasining boshlanish qismidagi eng qadimgi va juda muhim arxeologik yodgorliklardan biri hisoblanadi. Bu ulkan antik davri qal'asida faqat ayrim arxeologik qidirishlarga o'tkazilgan. Shuning uchun ham hozirgi vaqtda bizning qo'limizda bu qal'a haqidagi arxeologik ma'lumotlar uncha ko'p emas.

Hazorasp Xorazmning janubiy qismida Urganch shahridan 70 km uzoqlikda joylashgan. Arxeolog Qurbonboy Sobirovning "Xorazmning qishloq va shaharlari mudofaa inshootlari" nomli manografiyasida ma'lumot berilishicha: Yodgorlik kvadrat shaklida (340x320 m, ya'ni 10,8 ga) qurilgan bo'lib, uning mudofaa devori saqlanib qolgan qismidagi balandligi o'rtacha 4 – 5 m. Yodgorlikning janubi-sharqiy tomonida mustahkamlangan inshoot joylashgan, u mahalliy aholi o'rtasida Devsolgan nomi bilan ma'lum, uning maydoni kvadrat shaklda: 40x40 m. Hazorasp mudofaa devorida ma'lum masofada joylashgan yarim aylanali burjlar mavjud

² Матниёзов М., Олламов Я. Хоразм давлатчилиги тарихи. – Урганч: УрДУ нашриёти. 2009. –В. 111.

³ I. Karimov Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. "Ma'naviyat" – Toshkent. 1998. –В. 5.

⁴ Толстов С.П. Древний Хорезм ... Издание МГУ Масква 1948. – С. 348.

bo'lib, ularning shimoliy devorda – 7, g'arbiy tomonda – 6, sharqiy devorida – 4, janubida esa – 1 burj saqlanib qolgan. Burjlar o'rtasidagi masofa turlicha, burchak burj va unga yaqin burjlar o'rtasidagi masofa – 10 m, asosiy devordagi burjlar o'rtasidagi oraliq esa 55 m. Qal'aning kirish qismi janubiy devor markazida joylashgan bo'lib, uning kengligi 8 m. Darvozadan to'g'ri ko'cha o'tgan bo'lib, uning chap tomonida masjid joylashgan. Yodgorlik sharqiy tomondan keng xandak bilan o'rab olingan.⁵

Qadimgi davrlarda Hazorasp qal'asiga kelgan arab, fors, ingliz va boshqa sayyohlarning o'z esdaliklarida yozilishicha: Hazorasp go'zal shahar, u bamisoli atrofi suv bilan o'ralgan orolni eslatadi. Tekislikda joylashgan bu shaharning bozor va savdogarlari ko'p. Bu qal'ada ko'pgina savdo karvonlari to'xtab o'tadi. Hazorasp Xorazmning yirik qal'asi bo'lib, atrofi mustahkam qo'rg'on bilan o'rab olingan. Unga taslim bo'lmas “yengilmas qal'a” deb ta'rif beriladi.

Bu mahobatli qal'a nomi afsonalarga qorishib ketgan bo'lib, o'tmishning sir – sinoatiga aylangan.⁶

Akademik Yahyo G'ulomovning “Xorazmning sug'orilishi tarixi” nomli asarida Hazorasp qal'asi va uning kelib chiqishi to'g'risida ko'pgina ma'lumotlar berilgan. Bu asarda Yahyo G'ulomov Hazorasp qal'asi tarixiga oid bir afsona keltiriladi. Afsonada aytilishicha, Hazorasp qal'asini bahaybat bir dev qurgan emish. Bu qal'aga ming qanotli uchar otlar suv ichgani kelishar ekan. Devlarni aldov yo'li bilan qo'lga tushirib, qanotlarini qirqqan va ularni o'ziga o'rgatib olgan. Shu otlarning nihoyatda yaxshi avlodlari tufayli shuhrat qozongan bu qal'ani Hazorasp (mingta ot) deya boshlaganlar. Mahalliy aholi tomonidan bu qal'a “Dev solgan qal'a” nomi bilan ham ataladi. Tarixchilar tomonidan yozilishicha, qal'a atrofida suvli yer qisman hozir ham saqlanib qolgan. Bu suvlar faqat yer osti suvlaridan yig'ilgan.⁷

Mahalliy aholi orasida yana bir afsona bor. Afsonaga ko'ra, qal'a Amudaryodan yer ostida suv olishga mo'ljallab qurilgan bo'lib, Amudaryo bilan u mahfiy yo'l

⁵ Q. Sobirov. Xorazmning qishloq va shaharlari mudofaa inshootlari. Urganch. 2009. – B. 32.

⁶ Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи ... – Б. 77.

⁷ O'sha nashr. Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи ... – Б. 80..

“obido’s” orqali bog‘langan. Shuning uchun qal’a suv bilan ichki quduqlar orqali ta’minlangan.⁸

O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sulaymonov nomidagi Qo‘lyozmalar Institutining bo‘lim mudiri tarix fanlari doktori Mirsodiq Ishoqov Hazorasp toponimiga mutlaqo boshqacha izoh beradi. Aslida Hazorasp so‘zi juda qadimiy bo‘lib, uning ma’nosi zardushtiylik dunyoqarashidagi “muqaddas olov” tushunchasi bilan bog‘liqdir. Buning etimologik asosi quyidagicha: “hazor so‘zi Avestoda “otar” ya’ni o‘t-olov demakdir”deya tavsiflaydi. Bu atama keyinchalik tildagi fonetik xatolar natijasida o‘zgarib ketgan. So‘zning asl ma’nosi esa hazor emas otar ya’ni olov demakdir. So‘zning ikkinchi qismidagi qo‘shimchasi asp emas, balki aspan ya’ni muqaddas degan ma’noni anglatadi. Ushbu fikr 1945-yil Tolstov tomonidan va 1959-yilda Yahyo G‘ulomov tomonidan ham ta’kidlangan. Mazkur qal’ada Tolstov, Y. G‘ulomov, Vanberi, Anichkov (havaskor arxeolog 1892-yil), Muhammadjonov, Do‘simov, Ishoqov kabi arxeologlar va o‘lkashunos olim bir qancha arxeologik va toponomik tadqiqotlarni olib borganlar.⁹

Hazorasp qal’asida o‘tkazilgan arxeologik tadqiqotlar va bu yerdan topilgan arxeologik ashyolarni o‘rganish natijasida arxeologlar bu qal’ani miloddan avvalgi IV – asrga mansub degan xulosaga kelganlar. Afsuski, Hazoraspning eng qadimgi qatlamlarigacha arxeologik tadqiqotlar olib borilmagan. Shu sababdan shaharning vujudga kelishi, uning rivojlanish tarixi masalasi bir necha o‘n yilliklar davomida munozarali bo‘lib kelmoqda.¹⁰

Yuqorida Xorazmning qadimiy mudofaa inshootlaridan biri bo‘lgan Hazorasp qal’asi tarixini bir qancha arxeologik tadqiqot natijalari va o‘lkashunoslik faniga oid toponomik ma’lumotlar asosida yoritdik va tahlil qildik. Lekin bu qal’aga oid manbalar va ma’lumotlar bugungi kunda nisbatan juda kam hisoblanadi. Shu boisdan ham Hazorasp qal’asi tarixini qayta tiklash maqsadida maskur qal’a tarixini yanada ko‘proq tadqiqotlarni olib borish, ilmiy maqolalarni chop etish hamda ilmiy konferensiyalarni tashkil qilish tarix fanlari oldida turgan dolzarb va muhim

⁸ Толстов С.П. Древний Хорезм ... Издание МГУ Москва 1948. – С. 348.

⁹ Q. Sobirov. Xorazmning qishloq va shaharlari mudofaa inshootlari. Urganch. 2009. –B. 32.

¹⁰ Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи ... – Б. 77.

masalalardan biridir.

Shuning uchun ham biz tarixchilar o'lkamiz tarixini o'rganishdan to'xtamaymiz va Vatanimiz tarixiy meroslarini qayta tiklashda davom etamiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. **Ahmadali Asqarov.** *Eng qadimiy shahar.* – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2001.
2. **I. Karimov.** *Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q.* – Toshkent: “Ma’naviyat”, 1998.
3. **Q. Sobirov.** *Xorazmning qishloq va shaharlari mudofaa inshootlari.* – Urganch: UrDU nashriyoti, 2009.
4. **Матниёзов М., Олламов Я.** *Хоразм давлатчилиги тарихи.* – Урганч: УрДУ нашриёти, 2009.
5. **Толстов С.П.** *Древний Хорезм.* – Москва: Изд-во МГУ, 1948.
6. **Ғуломов Я.Ғ.** *Хоразмнинг суғорилиш тарихи.*